O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(1-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 410-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.I. Olifirovich, T.F. Velenti “ Oila tizimining funksional ko‘rsatkichlarini tahlil qilish”
2. N.I. Olifirovich, T.F. Velenti, T.A. Zinkevich-Kuzemkina "Oilaviy tizim terapiyasi" // Amaliy psixologiya va psixoanaliz jurnali: elektron. 2011.
3. Andreeva T.V. “Zamonaviy Rossiyadagi oila: tarkibiy va funktsional xususiyatlar”. Sankt-Peterburg universitetining axborotnomasi. Halqaro munosabat. – 2006. – Nashr. 2. – 80-87-betlar.

PSIXOLOGIK TRAVMA VA ULARNING SABABLARI

Qobilova Nasiba Ismatjon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti, stajyor o‘qituvchi
asliyatim@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologik travma nima ekanligi, uning qanday yuz berishi va unga doir nazariyalarning ilk yuz berish holatlari haqida yoritilgan. Maqolada alohida to‘xtalib o‘tilgan jihatlari psixologik travmaning asl sabablari va uning turlarining olimlar tomonidan keltirilgan tavsiflari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Psixologik travma, psixoanaliz, ruhiy shikaslanish, nevroz, ongsiz tasavvur, me`yordan chiqish, stress, harbiy opertasiya, terrorchilik, og‘ir kasalliklar, emotsional ta`sirchanlik.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib idrok, xotira, hissiyot va psixoterapiya bilan bog‘liq birinchi psixologik nazariyalar paydo bo‘la boshlagan paytda psixologik travma atamasi ham ilmiy muomalaga kirib kela boshladi. Psixologik travma atamasi 1878 yilda nemis nevrologi A.Eulenburg tomonidan kiritilgan bo‘lib ruhiy shikastlanish bo‘yich muammolarni o‘rganish vbo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari XIX asrning ikkinchi yarmida boshlandi. Bu aynan xotira hissiyotlarlarning ilmiy nazariy asoslari shakllantirildi, nevrozning asosiy sabablari haqida yangi g‘oyalar vujudga kela boshladi, psixologik kasalliklar va ularni davolashning yangi usullari ishlab chiqildi.

Psixologik travma tushunchasi Z.Freyd, J.M.Sharko va J.Breyerlarning ilmiy tadqiqot ishlari va yozgan asarlariga borib taqaladi. Xususan, Zigmund Freyd psisxoanalitik nazariyani yaratdi va travmaning asosini tashqi hodisalar natijasi emas balki psixikaning o‘zida ongsiz tasavvurlarni travmatik tashvishlarga olib keladigan Egoning bo‘linishida ko‘radi.

Psixologik travma deb insonning hayotda muhim bo‘lgan jihatlariga o‘z ta`sirini ko‘rsatadigan, muhim psixologik tajribalarga asoslangan, insonning hayotga moslashishiga halal beradigan va stressga olib keladigan jarayonga aytamiz. Aslida psixologik travma stress bilan birgalikda yuz beradi. Bu bir insonda me`yordan tashqariga chiqish natijasida yuz berishi mumkin. Psixologik travmaning sababini biz turlicha ko‘rsatishimiz mukin. Masalan:

- Yaqinlarining o‘lim holati yoki ular bilan buzilgan munosabatlar. Turmushi bilan ajrashish nafaqat ajrashgan insonlarda balki farzandlarda ham psixologik travmani keltirib chiqarishi mumkin;
- Insonning o‘zi yoki yaqinlarida yuzaga kelgan og‘ir kasalliklar;
- Harbiy operatsiyalar, terrorchilik harakatlarining qurboni yoki ishtirokchisiga aylanish;
- Migratsiya tufayli odatdagi turmush tarzining o‘zgarishi;
- Agar inson emotsional ta`sirchan bo‘lsa va ko‘z o‘ngida ruhiyatiga qattiq ta`sir ko‘rsatadigan nostandart vaziyatlar yuz bersa ham inson psixologik travma olishi mumkin.

Umumiy olganda psixologik travmaning ham sabablari uning bir nechta turlarini keltirib chiqaradi. Psixologik travma turlariga turli olimlar turlich fikrlar bildirganlar. Quyidagilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Tasniflash G.K.Ushakova va B.A.Voskresenskiyning fikrlariga ko‘ra, psixologik travma ko‘rinishlari quyidagicha:

1. Halokatli, to‘satdan, behosdan sodir bo‘ladigan bir o‘lchovli psixologik travmalar;
- Shaxs uchun muhim bo‘lgan,
- Shaxs uchun ahamiyatsiz
2. Vaziyatli o‘tkir, kutilmagan, odamni ko‘p jihatdan e`tiborini qaratadigan (inson obro‘ e`tiborini yo‘qotish, o‘ziga zarar beradigan jarayonlar bilan bog‘liq)
3. Inson hayotida uzoq yillar davom etgan vaziyatli, o‘zgaruvchan sharoitlar;
- Xabardor va yengib o‘tish mumkin,
- Ongsiz va chidab bo‘lmas
4. Muttasil aqliy zo‘riqish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar;
- Vaziyat holatidan kelib chiqqan holda,
- Odatiy faoliyatga erishish uchun insonning resurslari yetarli bo‘lmagan paytda haddan tashqari ko‘p harakat qilish.

Umumiy olganda insonda psixologik kasalliklarni keltirib chiqaradigan ruhiy travmalarni biz uch katta guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1. Psixologik travmani biz shartli ravishda “emotsional mahrumlik” deb aytishimiz mumkin. Bunday vaziyatlarga biz inson mehr ko‘rsatuvchi yaqinlaridan uzoq bo‘ladi va pozitiv hislar beradigan vaziyatlardan tashqarida qolib ketishi. Biz bu vaziyatlarga misol tariqasida ajrimlar, farzandlarning yetim qolishi, insonlarning yaqinlardan uzoq bo‘lishi va vatandan chatga chiqishni aytishimiz mumkin.
2. Har xil turdagi nizolar. Insonlar o‘rtasida munosabatlarni buzlishi natijasida hosil bo‘lgan oilaviy nizolar, farzandlar o‘rtasidagi nizolar. Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi nizolar, er-xotin o‘rtasidagi nizolar va hokazo.
3. Inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan turli xil ruhiy jarahotlar. Zilzila, suv toshqini, avtohalokatlar va boshqalar bunga misol bo‘lishi mumkin.

Psixologik travmalar va ularning oldini olishda biz Art terapiya, Geshtalt terapiya va boshqa ko‘plab usullardan foydalanishimiz mumkin. Eng muhim jihati shundaki psixologik travma hosil bo‘lgan insonlar albatta mutaxassislar bilan birgalikda ishlashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. LATIPOVA NODIRA MUXTARJANOVNA, ZIYAYEVA XOLEDA OMONQUL QIZI ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLAR VA BOLALAR BILAN IJTIMOIY ISH PROFILAKTIKASI 0 ‘QUV QO‘LLANMA «BOOK TRADE KO» TOSHKENT – 2022 21-22 bet
2. Qobilova N. OQUVCHILARDA IRODA RIVOJLANISHINING OZBEKISTON OLIMLARI TOMONIDAN TADQIQ ETILGANLIK HOLATI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2023. – №. I.
3. qizi Qobilova, N. I. (2024). O ‘ZBEKISTONDA AYOLLARGA NISBATAN ZO ‘RAVONLIK HOLATLARI VA UNGA DOIR CHORA TADBIRLAR. *Innovative Development in Educational Activities*, *3*(3), 14-18.
4. ZO‘RAVONLIK, OZAN (2024). HOLATLARI VA UNGA DOIR CHORA TADBIRLAR Qobilova Nasiba Ismatjon qizi. *ISSN 2181-3523 3-JIM, 3-son, 2024-YIL, FEVRAL* , 14.
5. O‘tgan yilgi bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning global tarqalishi: tizimli tahlil va minimal hisob-kitoblar. Hillis S, Mercy J, Amobi A, Kress H. Pediatriya 2016; 137(3): e20154079.

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ОБУЧЕНИЮ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ПОСТРОЕНИЙ

Шарипов Хуршид, Пайзикулова Дурдона
Джизакский филиал национального университета Узбекистана
sh_xurshid@yahoo.com

При решении с учащимися задач на построение возникают большие методические трудности. Дело в том, что при этом обычно преследуют две цели; решить данную задачу и вместе с тем научить школьников решать задачи на построение вообще, т.е. познакомить их с общими подходами к решению задач, показать, как путем анализа искомой фигуры, рассуждений, предположений отыскивается решение задачи.

Трудность усугубляется еще и тем, что часто нахождение решения задачи представляет собой весьма сложный процесс, требующий от учащихся большого внимания. Для того чтобы эта работа протекала успешно, необходимо, чтобы учащиеся заинтересовались решением задач, чтобы они поняли, насколько интересна эта работа. Поэтому всегда следует поощрять проявление учащимися изобретательности, инициативы, самостоятельности в отыскании решения.

Также возникает проблема: как и в каком месте курса геометрии, следует знакомить учащихся с общей схемой решения задач на построение. Здесь возникает два различных методических вопроса [3]. Первый из них — это вопрос о том, с какого времени в преподавании геометрии при решении задач должны фактически производиться анализ, построение, доказательство, исследование?